QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI







# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI

## 2022- YIL YANVAR-MART

**2022- yilning yanvar-mart oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami 968,3 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 101,0 % ni tashkil etdi.**

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



# Qurilish ishlari
# 2022- yil yanvar-mart oylari uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd. so'm | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik korxona va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 968,3 | 83,2 | 683,6 | 201,5 |
| Nukus sh. | 295,4 | 3,0 | 268,4 | 24,0 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Amudaryo | 43,9 | - | 21,7 | 22,2 |
| Beruniy | 53,4 | - | 26,7 | 26,7 |
| Bo'zotov | 14,1 | - | 12,5 | 1,6 |
| Qorao'zak | 15,7 | 0,1 | 13,4 | 2,2 |
| Kegeyli | 23,1 | 1,9 | 18,5 | 2,7 |
| Qo'ng'irot | 96,1 | 49,9 | 40,0 | 6,2 |
| Qonliko'l | 15,3 | - | 9,5 | 5,8 |
| Mo'ynoq | 33,8 | 1,5 | 28,4 | 3,9 |
| Nukus | 60,0 | - | 42,8 | 17,2 |
| Taxiatosh | 57,0 | 2,7 | 48,7 | 5,6 |
| Taxtako'pir | 24,6 | - | 21,8 | 2,8 |
| To'rtko'l | 75,3 | 24,0 | 26,0 | 25,3 |
| Xo'jayli | 37,9 | - | 26,6 | 11,3 |
| Chimboy | 34,2 | - | 12,6 | 21,6 |
| Shomanay | 18,8 | - | 14,9 | 3,8 |
| Ellikqal'a | 69,7 | 0,2 | 51,0 | 18,6 |

**2022- yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 83,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 63,9 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,8 % punktga kamayib, 8,6 % ni tashkil etdi.**

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




**MA’LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Qo‘ng‘irot tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 51,9 % i yoki 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 87,1 %), To‘rtko‘l tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 31,9 % i yoki 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 84,2 martaga ko‘p) va Kegeyli tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 8,2 % i yoki 2021- yilning yanvar-mart oylarigan nisbatan 148,2 %) ga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

**2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 70,6 % i to‘g‘ri kelib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 0,8 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 100,8 % ni tashkil etgan holda 683,6 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.**

**Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da**




**70,6**
2022- yil yanvar-mart

**69,8**
2021- yil yanvar-mart



**MA’LUMOT UCHUN:** *joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Nukus shahri (268,4 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 90,9 %), Ellikqal’a tumani (51,0 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 73,1 %), Taxiatosh tumani (48,7 mlrd. so‘m yoki 85,4 %), Nukus tumani (42,8 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 71,3 %), ga to‘g‘ri keldi.*

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 20,8 % ni tashkil etdi yoki 201,5 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 131,9 % ni tashkil etdi.




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **38,6** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **929,7** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **4,0%** va **96,0 %** ni tashkil etdi.



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2022- yil yanvar-mart oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **56,9** % i yoki 550,6 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**10,1 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 55,4 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **10,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 297,2 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **54,0 %** ni tashkil etdi.

**54,0 %**

**35,9 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **198,0** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **35,9 %** ni tashkil etdi.

# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart oylarida

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 968,3 | 101,0 | 100,0 |
| Nukus sh. | 295,4 | 97,7 | 30,5 |
| *tumanlar:* | | | |
| Amudaryo | 43,9 | 104,7 | 4,5 |
| Beruniy | 53,4 | 100,6 | 5,5 |
| Bo‘zotov | 14,1 | 92,3 | 1,5 |
| Qorao‘zak | 15,7 | 102,4 | 1,6 |
| Kegeyli | 23,1 | 101,2 | 2,4 |
| Qo‘ng‘irot | 96,1 | 92,3 | 10,0 |
| Qonliko‘l | 15,3 | 97,3 | 1,6 |
| Mo‘ynoq | 33,8 | 108,8 | 3,5 |
| Nukus | 60,0 | 109,1 | 6,2 |
| Taxiatosh | 57,0 | 70,4 | 5,9 |
| Taxtako‘pir | 24,6 | 97,4 | 2,5 |
| To‘rtko‘l | 75,3 | 155,0 | 7,8 |
| Xo‘jayli | 37,9 | 120,1 | 3,9 |
| Chimboy | 34,2 | 107,6 | 3,5 |
| Shomanay | 18,8 | 94,2 | 1,9 |
| Ellikqal’a | 69,7 | 108,3 | 7,2 |

# Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

| 2021- yil yanvar-mart | | 2022- yil yanvar-mart |
| --- | --- | --- |
| 66,6 % | Bino va inshootlarni qurish | 60,9 % |
| 16,1 % | Fuqarolik obyektlarini qurish | 24,5 % |
| 17,3 % | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | 14,6 % |
| | 100,0 % | |

***Ma’lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

*ulushi % da*

| | 2021- yil yanvar-mart | 2022- yil yanvar-mart |
|---|---|---|
| Yirik qurilish tashkilotlari | 8,8 | 3,3 |
| Kichik korxona va mikrofirmalar | 66,0 | 62,5 |
| Norasmiy sektor | 25,2 | 34,2 |



**Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,3 % ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 5,5 % punktga kamaydi.**

**Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 3,5 % punktga kamayib, 66,0 % ni tashkil etdi.**

**Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 9,0 % punktga ko‘payib, 34,2 % ni tashkil etdi.**

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 18,9 % ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 6,0 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 81,1 % ni tashkil etdi.

***ulushi % da***



# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 7,0 % punktga kamaydi va 13,4 % ni tashkil etdi. Qolgan 86,6 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 7,0 % punktga ko‘paydi.



# Korxonalar turlari bo‘yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-mart oylari

ulushi % da



**Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi**
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi**
**bo‘limi**
**Aloqa telefoni: *(61) 224-92-14***
***(61) 222-75-91***


